

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERITETI



Jizzax davlat pedagogika universiteti
rektori prof. Sr. Sharipov
2022 yil

GEOLOGIYA. TUPROQLAR GEOGRAFIYASI

FANINING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:

100000 – Ta'lim

Ta'lim sohasi:

110000 - Ta'lim

Ta'lim yo'nalishi:

60111000 -Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari

Fan/modul kodi	O'quv yili	Semestr	ECTS - Kreditar
GTGM110	2022-2023	1-2	4/4
Fan/modul turi	Ta'lim turi	Haftadagi dars soatlari	
Majburiy fan	O'zbek	4/4	
Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Жами юклама (soat)
1. Geologiya. Tuproqlar geografiyasi	Ma'ruza: 30/30 Amaliy: 14/16 Laboratoriya: 16/14	120	240
2. I. Fanning mazmuni. Geologiya. Tuproqlar geografiyasi kursi oliy ta'lim tizimida geograf, kartograf, geolog, gidrometeorologlar tayyorlashda muhim o'rin tutadi. Ushbu o'quv fani Vatanimiz-O'zbekiston tabiiy sharoiti va resurslari, ulardan omilkorlik bilan foydalanish, muhofaza ostiga olish haqida bilimlar berish bilan birga, respublikamiz tabiati va xo'jaligining rivojlanishi qonuniyatlarini tushinib olishga xizmat qiladi. Talabalarga Geologiya fanining tadqiqot ob'ekti va predmeti, tadqiqot usullari, fanning rivojlanish bosqichlari, geologik jarayonlar, mineralar paydo bo'lishi, foydali qazilmalarining ahamiyati, yerning geologik rivojlanish tarixi, eon, era va davrlar mazmunini o'rgatish kabi masalalariga oid bilimlar berish va o'rgatishdan iborat. Tuproqlar geografiyasining tarixi, tuproq hosil qiluvchi omillar va jarayonlarni, tuproqning tabiat komponenti sifatida boshqa komponentlar bilan o'zaro ta'sir va aloqada rivojlanishi, tuproqlarning turlari, xossalari, geografik tarqalishi, tuproqlarni kartalashirish masalalari va respublikamiz hududida tarqalgan tuproqlar, ularning turlari, tuproqlarni muhofaza qilish kabilarni o'rgatishdan iborat. Fanning vazifasi – Geologiya fanining maqsadi va vazifalari, rivojlanish tarixi va boshqa fanlar bilan bog'liqligi. - Mineralar va tog' jinslarining genetik turlarini o'rganish; - Kristall panjaralar, kristallografik shakllar bilan tanishtirish; - Endogen geologik jarayonlar haqida to'g'risida bilimlar berish; - Magmatogen va magmadan so'nggi jarayonlarga oid bilimlar berish; - Metamorfik jarayonlar va metamorfik tog' jinslarini o'rganish; - Tektonik jarayonlar va ularning ahamiyatini tahlil qilish; - Ekzogen geologik (nurash) jarayonlarga oid bilimlar berish; - Dengiz va okeanlarning geologik faoliyatini o'rganish; - Paleontologiya va Paleogeografiya asoslari haqida ma'lumotlar berish; - Paleozoologiya, paleobotanika haqida tushunchalarni tanishtirish; - Stratigrafiya, geoxronologiya haqida ma'lumotlar berish; - tabiatda modda va energiya almashuvining tuproq hosil bolishidagi ahamiyatini tushintirish;			

- gipergenez to'g'risidagi tushunchalarni tanishtirish;
- pleystosen yotqiziqalar asosiy tuproq hosil qiluvchi jinslar ekanligini tushintirish;
- tuproqlarning umumiy fizik va fizik-kimyoviy xossalari to'g'risida bilimlar berish;
- tuproq va tuproq hosil qiluvchi tog' jinslarining mineral va kimyoviy tarkibi to'g'risida bilimlar berish;
- tuproq hosil qiluvchi tog' jinslarining tuproqlar geografyasiga ta'siriga oid bilimlar berish;
- tuproqlar morfologiyasi to'g'risida bilimlar berish;
- tuproqlar tasnifi haqida bilimlar berish;
- tuproqlarning zonal tarqalishi to'g'risida bilimlar berish;
- tog'larda tuproqlarning balandlik mintaqalari qonuniyatlarini asosida joylashishiga oid bilimlar berish;
- O'zbekiston tuproqlari to'g'risida batafsil bilimlar berish;
- vohalardagi tuproqlarga oid bilimlar berish;
- tuproq xartalari va ularning ahamiyati haqidagi bilimlar berish;
- - - - - tuproq muhofazasiga oid bilimlar berish.

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) 60 soat

II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

I-modul.Geologiya

1-mavzu. Fanning maqsad va vazifalari. Geologiya fanining tarmoqlari.

Geologiya fanining rivojlanish tarixi. (2 soat)

Fanning maqsadi va vazifalari, qisqacha rivojlanish tarixi. O'quv fanining boshqa tabiiy fanlar bilan bog'liqligi. Geologiya va geomorfologiya fanlarining o'zaro bog'liqligi, tarmoqlari va rivojlanish tarixi; Geologik tadqiqot uslublari: dialektik, morfometrik, paleogeomorfologik, morfodinamik, morfostruktura, xaritagrafik, aerokosmik uslublar. Geologik xartalar, kesmalar va ularning shartli belgilari. Geologik qidiruv, endogen va ekzogen jarayonlarni o'rganish metodlari.

2-mavzu. Yerning koinotdagi o'rni. Quyosh sistemasining paydo bo'lishi. Yerning ichki tuzilishi. (2 soat)

Yadro, mantiya, litosfera, atmosfera, gidrosfera, biosfera va ularning o'zaro aloqasi. Geografik qobiqning shakllanishida geosferalarning ahamiyati. Yer po'sti - Yerning qattiq tashqi qobig'i. Cho'kindi, granit va bazalt qatlamlar, Moxo chegarasi. Yer po'stining kimyoviy tarkibi.

3-mavzu: Mineralogiya. Minerallar haqida tushuncha.

Tog' jinslarining genetik turlari. (2 soat)

Tog' jinslarining genetik turlari. Mineralogiya nimani o'rganadi. Kristall panjaralar, kristallografik shakllar. Minerallar va tog' jinslari haqida tushuncha. Konlar va foydali qazilma konlari haqida tushuncha.

4-mavzu: Endogen geologik jarayonlar. Magmatizm. Vulkanlar haqida tushuncha va ularning mahsulotlari. Effuziv va intruziv jinslar. Ular bilan bog'liq holda shakllangan foydali qazilma boyliklar. Zilzila. Seysmik va aseymik hududlar geologiyasi. (2 soat)

Tabiiy geografik jarayonlar haqida tushuncha. Endogen geologik jarayonlar haqida tushuncha. Endogen geologik jarayonlar. Magmatizm. Intruziv va effuziv magmatizm. Effuziv magmatizm - vulkanizm. Vulqonlar va ularning turlari. Magmatik jarayonlar bilan bog'liq qazilma boyliklarning hosil bo'lishi haqida. Vulkanlar haqida tushuncha va ularning mahsulotlari to'g'risida ma'lumotlar berish. Effuziv va intruziv jinslar va ular bilan bog'liq holda shakllangan foydali qazilma boyliklarning paydo bo'lishi haqida bilimlar berish. Tektonik harakatlarning xillari. Yerning asosiy geostrukturalari. Geosinklinal va platforma viloyatlari va ularning unsurlari. Litosfera tektonik plitalari. Seysmik mintaqalar. Falokatli zilzilalar tarixi.

5-mavzu. Ekzogen geologik jarayonlar haqida tushuncha. Nurash va uning geologik ahamiyati. Shamolning geologik faoliyati. (2 soat)

Nurash va uning geologik ahamiyati Ekzogen geologik (nurash) jarayonlar. Ekzogen geologik (nurash) jarayonlar natijasida paydo bo'lgan tog' jinslari va foydali qazilma boyliklari hamda ularning ahamiyati

6-mavzu. Gidroferaning geologik faoliyati. Okean va dengizlarning geologik faoliyati. (2 soat)

Dengiz va okeanlarning geologik faoliyati natijasida paydo bo'lgan tog' jinslari va foydali qazilma boyliklari hamda ularning ahamiyati

7-mavzu:Daryolar, ko'l va botqoqliklarning geologik faoliyati. O'zan eroziyasi, jarlanish, suffoziya. (2 soat)

Daryolar suvlarining geologik faoliyati natijasida paydo bo'lgan tog' jinslari va foydali qazilma boyliklari hamda ularning ahamiyati. O'zan eroziyasi, jarlanish, suffoziya. geologik faoliyati o'rganish. Ko'l va botqoqliklarning geologik faoliyati natijasida paydo bo'lgan tog' jinslari va foydali qazilma boyliklari hamda ularning ahamiyati. Cho'kindi tog' jinslari aniqlash.

8-mavzu: Yer osti suvlarining geologik faoliyati.

Karst va psevdokarst, suffoziya. (2 soat)

Yer osti suvlarining geologik faoliyati natijasida paydo bo'lgan tog' jinslari va foydali qazilma boyliklari hamda ularning ahamiyati. Karstlar. Karst g'orlari

Tuproqlar geografyasi

9-mavzu. Kirish. Fanning tadqiqot obyektini, maqsadi va vazifalari, tadqiqot usullari. (2 soat)

Fanning tadqiqot obyektini. Tuproq to'g'risida tushuncha. Uning tabiiy hosila ekanligi. Tuproqlarni o'rganishning iqtisodiyot uchun muhimligi. Tuproqlarni o'rganish usullari (metodlari).

10-mavzu. Tabiiy geografiya uchun tuproqshunoslik va tuproqlar geografyasining ahamiyati. Tuproqlarni o'rganish tarixi. (2 soat)

Tabiiy geografik bilim va tadqiqotlar uchun tuproqshunoslik va tuproqlar geografyasining ahamiyati. V.V.Dokuchayev - tuproq va tuproqlar geografyasi to'g'risidagi fanning asoschisi ekanligi. Tuproqshunoslik va tuproqlar geografyasiga oid tadqiqotlarning Dokuchayevgacha bo'lgan, Dokuchayev davri, Dokuchayevdan keyingi tadqiqotlar davri. Tuproq - geografik tadqiqotlarning ikkinchi jahon urushigacha, urushdan keyingi va hozirgi davri

bosqichlari Yevropa mamlakatlardagi tadqiqotlar.

11-mavzu. Giperegenez jarayoni va tuproq hosil qiluvchi tog' jinslarining vujudga kelishi. (2 soat)

Giperegenez (nurash) jarayoni. Mineral va tog' jinslari. Fizik, biologik, kimyoviy nurash. Tuproq ona jinsi va tuproqning mexanik tarkibi. Tuproq paydo qiluvchi ona jinslar. Tuproqlarning umumiy fizik va fizik-kimyoviy xususdallari. Tuproq va tuproq hosil qiluvchi jinslarning mineral va kimyoviy tarkibi.

12-mavzu. Tuproq hosil bo'lishining biologik omillari va tuproqning organik qismi. (2 soat)

Mikroorganizmlar va tuproqlar geografyasi, O'simliklarning tuproqlar geografyasidagi o'rni, Hayvonot olamining tuproqlar geografyasidagi ahamiyati va tuproqlarning organik qismi.

13-mavzu. Tuproq hosil bo'lishida iqlim va gidrologik omillarning o'rni. (2 soat)

Tuproq hosil bo'lishida iqlimning bevosita va bilvosita ta'siri. Tuproqning issiqlik tartibi. Tuproqning suv tartibi. Tuproq hosil bo'lishida shamolning roli.

14-mavzu. Tuproq hosil bo'lishida relyefning ahamiyati. (2 soat)

Relyef yer yuzasida quyosh energiyasi va atmosfera yog'inlarining taqsimotchisi sifatida. Moddalar migratsiyasida relyefning roli. Relyef va tuproqlar geografyasi. Tuproqning morfologik belgilari. Tuproq kesmasi va genetik qatlamlar.

15-mavzu. Tuproqlarning morfologiyasi tarkibi, tuzilmasi va hossalari kimyoviy tarkibi. (2 soat)

Tuproqlarning morfologiyasi va kimyoviy tarkibi. Asosiy kimyoviy elementlarning tuproq va jinslardagi miqdori va tarqalishi. Tuproqdagi asosiy kimyoviy elementlar. Tuproqdagi mikroelementlar turlari va ahamiyati. Tuproqning radioaktivligi.

II-semestr. Geologiya.

1-mavzu. Muzliklarning geologik faoliyati, tog' muzliklari.

Quyvi muzliklar va abadiy do'ngloq yerlarning geologik faoliyati. (2 soat)

Qadimgi muzliklar va abadiy do'ngloq yerlarning geologik faoliyati. Tog' muzliklarining geologik faoliyati natijasida paydo bo'lgan tog' jinslari va foydali qazilma boyliklari hamda ularning ahamiyati. Morenalar.

2-Mavzu: Paleontologiya va Paleogeografiya asoslari.

Paleozoologiya, paleobotanika. (2 soat)

Paleontologiya asoslari nimani o'rganadi. Paleontologiya fani haqida asosiy tushunchalar. Paleontologiya va Paleogeografiyning boshqa fanlar bilan aloqasi. Paleozoologiya, paleobotanika haqida tushuncha. Toshqotgan hayvonot va o'simliklar dunyosining saqlanish holatlari va ularning geologik hamda paleogeografiya sohalaridagi xizmati. Fatsiya va formatiyalar haqida tushuncha.

3-mavzu: Stratigrafiya. Yerning geologik rivojlanish tarixi. Tog' ko'tarilish bosqichlari. (2 soat)

Stratigrafiya, geoxronologiya haqida tushuncha. Geologik vaqt hisobi.

Yerning geologik rivojlanish tarixi. Geologik tuzilishi tog' hosil bo'lish bosqichlari. O'zbekistonning geologik rivojlanish tarixi. O'zbekistonning geologik tuzilishi. Arxej Proterozoy eralari geologik tarixi. Tog' paydo bo'lish bosqichlari. Paleozoy, mezazoy erasi rel'efi tog' paydo bo'lish bosqichlari, flora va faunasi. Kaynazoy erasi davrlari geologiyasi flora va faunasi tog' hosil bo'lish bosqichlari.

4-mavzu: Tokembriy geologik davrlarning rivojlanish tarixi. Arxej, proterozoy erasi. (2 soat)

Arxej erasi rivojlanish tarixi. Proterozoy erasi geologik tarixi. Proterozoy erasi rel'efi, flora va faunasi.

5-mavzu: Paleozoy geologik davri tarixi. Kembriy, ordovik, siluriy, devon, toshko'mir, perm davrlari. (2 soat)

Paleozoy geologik davrlari. Kembriy davri tog' paydo bo'lish bosqichlari va flora va faunasi. Ordovik va Silur davri tog' paydo bo'lish bosqichlari va flora va faunasi. Devon, Toshko'mir va Silur davri tog' paydo bo'lish bosqichlari, flora va faunasi

6-mavzu: Mezazoy erasi. Trias, yura, bo'r davrlari. (2 soat)

Mezazoy erasi: trias, yura va bo'r geologik davrlari tarixi. Mezazoy erasi tog' paydo bo'lish bosqichlari, flora va faunasi

7-mavzu: Kaynazoy erasi. Paleogen, neogen, to'rtlamchi davrlar. (2 soat)

Kaynazoy erasi: Paleogen, neogen va to'rtlamchi (antropogen) davrlari tarixi. Kaynazoy erasi tog' paydo bo'lish bosqichlari, flora va faunasi

Tuproqlar geografyasi

8-mavzu. Tuproqlar tasnifi, turlari va tuproq unumdorligi. (2 soat)

Tuproqlar tasnifi va tasniflash tamoyillari. Tuproq tashxisi. Tuproq unumdorligi va uning turlari. Tuproq unumdorligini oshirishda xorijiy mamlakatlar

9-mavzu. Geografik zonallik qonuniyati va tuproq-geografik rayonlashtirish. (2 soat)

Geografik zonalar to'g'risidagi ta'limot. Tuproqlar geografyasining umumiy qonuniyatlari. Tuproq – geografik rayonlashtirish.

10-mavzu. Arktika, tundra va o'rmon tundra tuproqlari (qutbiy mintaq). (2 soat)

Qutbiy mintaqaning tabiiy – iqlimiy sharoiti va tuproq zonallari. Arktika tuproqlari zonasi. Subarktikaning tundra gleyli va loyli – gumusli tuproqlari zonasi.

11-mavzu. Boreal mintaqa tuproqlari geografyasi. (2 soat)

Boreal mintaqaning tabiiy – iqlimiy sharoiti va tuproq oblastlari. Tayga – o'rmon oblasti. O'tloq – o'rmon va muzloq – tayga oblastlari. Subboreal mintaqaning tabiiy – iqlimiy sharoiti va tuproq oblastlari. Nam qo'ng'ir – o'rmon tuproq oblasti. Qora va kashtan tuproqli o'rmon – dasht hamda dasht oblasti. Och – kashtan, qo'ng'ir chala cho'l va sur – qo'ng'ir cho'l tuproq oblasti.

12-mavzu. Subboreal mintaqa tuproqlari geografyasi. (2 soat)

Subboreal mintaqaning tabiiy – iqlimiy sharoiti va tuproq oblastlari. Nam qo'ng'ir – o'rmon tuproq oblasti. Qora va kashtan tuproqli o'rmon – dasht hamda dasht

oblasti. Och – kashan, qo'ng'ir chala cho'l va sur – qo'ng'ir cho'l tuproq oblasti.

13-mavzu. Subtropik mintaqa tuproqlari geografiyasi. (2 soat)
Subtropik mintaqaning tabiiy – iqlimiy sharoiti va tuproq oblastlari. Subtropik sernam – o'rmon oblasti. Subtropik kserofit – o'rmon va buta – dasht oblasti. Subtropik chala cho'l va cho'l oblasti.

14-mavzu. Tropic mintaqa tuproqlari geografiyasi. (2 soat)
Tropic mintaqaning tabiiy-iqlimiy sharoiti va tuproq oblastlari. Tropic nam va mavsumiy nam o'rmon oblasti. Tropic kserofit – o'rmon va savanna oblasti.

Tropic chala cho'l va cho'l oblasti

15-mavzu. O'zbekiston tuproqlari geografiyasi. Tuproq kartalari, yer kadastr va tuproq bonitrovkasi hamda yer resurslari. Tuproqlarning ahamiyati va uni muhofaza qilish. (2 soat)

O'zbekistonda tuproqlar geografiyasining rivojlanishi. O'zbekistonning tekislik provintsiyasi tuproqlari geografiyasi. O'zbekistonning tog'oldi va tog' provintsiyasi tuproqlari geografiyasi. Tuproqni kartalash va tuproq kartalari. O'zbekiston tuproq kartasi. Yer kadastr va tuproq bonitrovkasi. Dunyoning yer resurslari. Tuproqni kartalash va tuproq kartalari. O'zbekiston tuproq kartasi. Yer kadastr va tuproq bonitrovkasi. Dunyoning yer resurslari.

III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar (30 soat)
Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish metodikasi Amaliy mashg'ulotning tuzilishi o'z ichiga oladi.

O'qituvchini amaliy mashg'ulotga tayyorlash dastlabki hujjatlarni (o'quv rejasini, tematik reja va h.k.) o'rganishdan boshlanadi va dars rejasini loyihalash bilan yakunlanadi. O'qituvchi amaliy mashg'ulotning maqsad va vazifalari, har bir talaba bajarishi kerak bo'lgan ish hajmi haqida tasavvurga ega bo'lishi kerak. Amaliy mashg'ulotni tayyorlash va o'tkazishda o'qituvchining asosiy uslubiy hujjati hisoblanadi **uslubiy ko'rsatmalar**.

O'qituvchini amaliy mashg'ulotga tayyorlashga qo'yiladigan talablar:

- ma'ruza matnini ko'rish;
- aniq topshiriqlar va mashqlarda tasvirlanishi kerak bo'lgan tushunchalar, qoidalar, naqshlarni ajratib ko'rsatish;
- talabalarining nazariy materialni tushunishlari uchun bilimlarni nazorat qiluvchi savollarni tanlash;
- misollar va mashqlar uchun material tanlash;
- topshiriqlar va mantiqiy topshiriqlarni tanlashda didaktik maqsadni taqdim eting: qaysi vazifaga nisbatan qanday ko'nikma va qobiliyatlarni rivojlantirish kerak, bu o'quvchilardan qanday harakatlarni talab qiladi, bu muammoni hal qilishda o'quvchilarning ijodkorligi qanday bo'lishi kerak;
- tanlangan topshiriqlar va testlarni o'qituvchining o'zi bajarishi yoki hal qilishi (oldindan hal qilish va uslubiy jarayon);
- echlilgan masala yuzasidan xulosalar tayyorlash, yakuniy taqdimot tayyorlash;
- eng oddiy, keng tarqalgan misollarni ham, qo'shimcha o'rganishga arziyadigan

murakkabroq misollarni ham echish uchun vaqtni rejalashtirish;

- bajarilgan vazifalarning murakkabligini oshirish tuyg'usini saqlab qolish, bu o'rganishdagi o'z muvaffaqiyatini amalga oshirishga olib keladi va kognitiv faoliyatini ijobiy rag'batlantiradi;

- har bir o'quvchining tayyorgarligi va qiziqishini hisobga olish, toki o'quvchilar qizg'in ijodiy ishlar bilan band bo'lsin, har kim o'z qobiliyatini namoyon etish imkoniyatiga ega bo'lsin;

- dastlab talabalarga reproduktiv faoliyat uchun mo'ljallangan, tushunish va mustahkamlash uchun ma'ruzada berilgan harakat usullarini oddiy takrorlashni talab qiladigan oson topshiriqlarni berish; model bo'yicha muammolarni hal qilish;

- keyin reproduktiv va transformativ faoliyat uchun mo'ljallangan vazifalarni taklif qiling, bu harakatning ushbu usulining maqsadga muvofiqligini tahlil qilish qobiliyatini o'z ichiga oladi, vazifani bajarish shartlari, farazlar va olingan natijalar haqida o'z fikringizni bildiring, ya'ni qo'llash ko'nikma va ko'nikmalarini rivojlantiring. o'rganilayotgan usullar va ularning mavjudligini nazorat qilish talabalar;

- keyin yanada murakkab, ya'ni material yoki kursni o'rganish chuqurligini nazorat qilish uchun mo'ljallangan murakkab vazifalarni taklif qilish - dastlab ishlab chiqarish faoliyatining alohida elementlarini talab qiladigan, keyin esa - to'liq samarali (ijodiy);

- muammolarni hal qilish uchun zarur bo'lgan illyustrativ materialni tanlash, doskada chizmalar va yozuvlarni joylashtirishni ko'rib chiqish va h.k.;

- mavzu bo'yicha amaliy topshiriqlar (mantiqiy topshiriqlar) tizimini yaratib, ma'lum bir dars uchun kerakli vazifalarni tanlab, ularning har birini hal qilish vaqtini hisoblab, o'qituvchi har bir guruh uchun amaliy mashg'ulot o'tkazish rejasini ishlab chiqishga kirishadi; tayyoriqligini hisobga olgan holda.

Rejani qaysi shaklda tuzish maqsadga muvofiq? O'qituvchining o'zi odatlangan bo'lsa kerak. U amaliy darsni o'tkazish uchun umumiy dastlabki ma'lumotlarni va mazmun qismini o'z ichiga oladi. Buni takidlash kerak **reja** quyidagi:

Uy vazifasini tekshirishga qancha vaqt sarflashingiz kerak?

- nazariya bo'yicha talabalar o'rtasida so'rov o'tkazishga qancha vaqt sarflash va qanday savollar berish kerak;

- doskada qanday misol va topshiriqlar qanday ketma-ketlikda yechiladi; muayyan vazifada nimaga e'tibor berish kerak;

- har bir topshiriq (test) uchun chizmalar va hisob-kitoblarni qanday tartibga solish;

- nazariya bo'yicha kimdan o'tkazish va muammolarni hal qilish uchun kimni kengashga chaqirish kerak;

- kengashga murojaat qilmasdan qanday vazifalarni joyida hal qilish uchun taklif qilish;

- "kuchli" talabalarga qanday vazifalarni taklif qilish;

- uydagi mustaqil hal qilish uchun qanday vazifalarni qo'yish kerak.

Amaliy mashg'ulotlarning maqsadi nazariyani idrok etish, uni o'quv va kasbiy faoliyatda ongli ravishda qo'llash ko'nikmalarini egallash, o'z nuqtai nazarini ishonchli shakllantirish qobiliyatini shakllantirishdan iborat.

Amaliy mashg'ulot uchun tavsiya qilingan mavzular:

1-semestr (14 soat)

1-mavzu. Fanning tadqiqot obekti, maqsad-vazifalari va tadqiqot usullarini tahlil qilish. Tuproqshunoslik va tuproqlar geografiyasiga oid tadqiqotlar tarixining asosiy davrlari. Tuproqshunoslik va tuproqlar geografiyasiga oid tadqiqotlar tarixining asosiy davrlari; (2 soat)

Reja:

1. Tuproqshunoslik fanining tadqiqot ob'ekti nimalardan iborat.
2. Fanning o'rganishda oldiga qo'yilgan maqsad haqida tushuncha
3. Fanni o'rganishda oldiga qo'yilgan vazifalari nimalardan iborat
4. Tuproqlar geografiyasi fanining tadqiqot usullarini o'rganish va ularni tahlil qilish

2-mavzu. Gipergenez (nurash) jarayoni va tuproq hosil qiluvchi tog' jinslari (2 soat)

Reja:

1. Nurash va uning turlari.
2. Tuproq hosil qiluvchi tog' jinslari
3. Nurash natijasida hosil bo'lgan jinslar
4. Ellyuvial va prolyuvial otqiziqilar.
5. Alyuvial va delyuvial yotqiziqilar

3-mavzu. Tuproq hosil bo'lishning biologik omillari va tuproqning organik qismini o'rganish (2 soat)

Reja:

1. Tuproq hosil bo'lishida biologik omillarning roli.
2. Tuproqning organik qismi
3. O'simliklarning tuproqlar geografik o'rni
4. Mikroorganizmlar va tuproqlar geografiyasi

4-mavzu. Tuproq hosil bo'lishida iqlim va gidrologik omillarning o'rni. Tuproqning issiqlik xossalari. Tuproqning suv xossalari o'rganish (2 soat)

Reja:

1. Tuproq hosil bo'lishida iqlimning roli (Misollar keltiring)
2. Tuproq hosil bo'lishida gidrologik (barcha suv bilan bog'liq manbaalar) omillarning roli
3. Tuproqning suv xossalari, tuproqdagi suvlarning turlari.
4. Tuproqning issiqlik xossalari. Tuproqning singdirish qobiliyatining turlari.

5-mavzu. Tuproq hosil bo'lishida relyefning ahamiyati. Tuproqlarning morfologiyasi, tarkibi, tuzilmasi va xossalari (2 soat)

Reja:

1. Relyef yer yuzasida quyosh energiyasi va atmosfera yog'inlarining taqsimlovchisi sifatida va tuproq hosil bo'lishida roli.
2. Tuproq hosil bo'lishida moddalar migratsiyasi va relyefning ro'li

3. Relyef va tuproqlar geografiyasi

6-mavzu. Tuproqlarning tasnifi, tashxisi va unumdorligi. Geografik zonallik qonuniyati va tuproq-geografik rayonlashtirish (2 soat)

Reja:

1. Tuproqlarni tasniflash. Tuproq taksanomiyasi. Tuproq tashxisi. Tuproq unumdorligi.

2. Tuproq tuzilmasi. Tuproqning fizik xossalari.

3. Geografik zonalar haqidagi ta'limot asoschilari

4. Tuproqlar geografiyasining asosiy umumiy qonuniyatlarini o'rganish

5. Tuproqlarni geografik rayonlashtirish va uning taksanomik birliklari

7-mavzu. Arktika, tundra va o'rmon tundra tuproqlari (qutbiy mintaqa) Arktika, tundra va o'rmon tundra tuproqlari (qutbiy mintaqa) (2 soat)

Reja:

1. Qutbiy mintaqa tabiiy sharoiti va turoq hosil bo'lish jarayonini o'rganish.

2. Arktika mintaqasi tuproqlarining hosil bo'lishi

3. Subarktika tuproqlari va ularning tarqalishizonasi va xususiyatlari

4. Tundra tuproqlarining tarqali shi va hosil bo'lishi

5. O'rmon tundra tuproqlari va ularning tarqalishi

6. Qutbiy mintaqa tuproqlarini yozuvsiz xartaga tushirish tahlil qilish

II-semestr (16 soat)

1-mavzu. Boreal mintaqa tuproqlari geografiyasi (2 soat)

Reja:

1. Boreal mintaqaning tabiiy sharoitiga ta'rif bering va uni chegaralarini xaritadan ko'rsating.

2. Boreal mintaq bilan qutbiy mintaqa tabiiy sharoitidagi o'xshashlik va tafovutlarni tavsiflang.

3. Tayga — o'rmon oblastining tuproq hosil qiluvchi asosiy omillarini ko'rsating.

4. Tayga - o'rmon oblastining asosiy tuproq tiplariga tavsif bering.

5. O'tloq - o'rmon oblasti tuproqlariga ta'rif bering.

6. Muzloq - tayga oblastining tabiiy - iqlimiy sharoitining o'ziga xosligi nimadalaridan iboratligini tushuntiring.

7. Muzloq - tayga o'rmonlari tuproqlarining hosil bo'lish omillarini sharhlang.

8. Muzloq - tayganing asosiy tuproqlari geografiyasini tushuntiring.

9. Kulli - vulqon tuproqlarining hosil bo'lishi va geografiyasiga izoh bering.

2-mavzu. Subboreal mintaqa tuproqlari geografiyasi (2 soat)

Reja:

1. Subboreal mintaqa chegaralari va maydoni

2. Subboreal mintaqa tuproqlarining xo'jalik ahamiyatini ta'riflab

3. Subboreal mintaqa tuproqlarini yozuvsiz kartaga tushuring.

3-mavzu. Subtropik mintaqa tuproqlari geografiyasi (2 soat)

Reja:

1. Subtropik va tropic mintaqa sernam o'rmon oblastining qizil va sariq tuproqlarining paydo bo'lishini tushuntiring.

2. Subtropik semam o'rmon oblastining qizil va sariq tuproqlarining paydo bo'lishini, tarqalish qonuniyatlarini ta'riflang.
3. Jigarrang va sur - jigarrang tuproqlami hosil bo'lish omillarini va qora subtropik tuproqlar geografiyasiga ta'rif bering.
4. Qizil sariq tuproqlarning hosil bo'lishi va tarqalish xususiyatlarini va ferralit tuproqlarning hosil bo'lishi va geografiyasiga tavsif bering

4-mavzu. Tropic mintaqa tuproqlari geografiyasi (2 soat)

Reja:

1. Tropic mintaqa tuproqlarining tarqalish geografiyasi
2. Tropic mintaqa sernam o'rmon oblastining qizil va sariq tuproqlarining paydo bo'lishini tushuntiring.
3. Tropic tuproqlarining paydo bo'lishini, tarqalish qonuniyatlarini ta'riflang.

5-mavzu. O'zbekiston tuproqlari geografiyasi (2 soat)

Reja:

1. O'zbekiston tuproqlar geografiyasi rivojlanishining ilk davrlarini va O'zbekiston tuproqlar geografiyasini rivojlanishi haqida ma'lumotlar to'plang.
2. S.S. Neustruev va N.A. Dimonning tuproqlar geografiyasi rivojlanishiga qo'shgan xissasini slaydda ko'rsating.
3. O'zbekiston tuproqlar geografiyasi rivojlanishiga hissa qo'shgan yana qaysi olimlarning tadqiqotlarini bilasiz ular haqida ma'lumotlar to'plang va slaydlarda ko'rsating.
5. Tuproqlar geografiyasining rivojlanishiga hissa qo'shgan mahalliy olimlardan kimlami bilasiz? Ularning olib borgan ishlari to'g'risida ma'lumotlar to'plang.
6. O'zbekiston tuproqlarining tasniflash va rayonlashtirishga oid qanday ishlar amalga oshirilgan va amalga oshirilmogda.
7. O'zbekistonning tekislik provinsiyasi va tog'oldi adir mintaqasi tuproqlari geografiyasiga ta'vsiif bering.

6-mavzu. O'zbekistonning balandlik mintaqasi tuproqlari joylashuvi (2 soat)

Reja:

1. Tog' oldi va adir mintaqasi bo'z tuproqlari
2. Jigarrang va qoram tir qo'ng'ir tog' - o'rmon tuproq mintaqasi
3. Och tush qo'ng'ir - o'tloq - tuproq mintaqasi
4. O'rta Osiyo va O'zbekiston tog'lari misolida balandlik mintaqalar bo'yicha tuproqlarni tarqalishini chizing.

7-mavzu. Tuproq kartalari, yer kadastr va tuproq bonitrovkasi hamda yer resurslari (2 soat)

Reja:

1. Tuproqlarni xaritalash usullari
2. Tuproqlarni geografik xaritalashga oid olib borgan olimlarning ishlarini o'rganish
3. Tuproqlar xaritalari va ularning turlari bilan tanishish
4. Yer kadastr va uning vazifalarini o'rganish

5. Tuproq bonitrovkasi va uni aniqlash usullarini o'rganish

4. Tuproq boniteti klasslarining jadvalini chizing va tahlil qiling

5. Dunyoning yer resurslari jadvalini tahlil qiling

6. O'zbekiston yer fondi tuzilmasi jadvalini chizing va tahlil qiling

8-mavzu. Tuproqlarning ahamiyati va uni muhofaza qilish (2 soat)

Reja:

1. Tuproqning tabiatdagi roli
2. Tuproqning jamiyat hayotidagi o'rmi
3. Tuproqlarni muhofaza qilish.

IV. Laboratoriya mashg'ulotlari uchun quyidagi ko'rsatma va tavsiyalar:

Jumladan, o'qituvchilar mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rishi va uni o'tkazish jarayonida quyidagi jixatlarga alohida e'tibor berishlari zarurligini ta'kidlab o'tdi: - o'qituvchining tegishli fan bo'yicha etarli bilim, amaliy tajriba va ko'nikmaga ega bo'lishi; - o'quv mashg'ulotida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol usullar va ko'rgazmali vositalardan unumli foydalana olishi; - o'quv materialini aniq va ravon tarzda bayon qila olishi, darsni tushunari o'tishi, fan buyicha ilmiy bilimlar berishi, tinglovchilarning bilish faoliyatini faollashtirishi; - o'qituvchining auditoriya bilan mulqoti, tinglovchilarda zaruriy ko'nikmalarni shakllantira olishi, tinglovchilarni mustaqil ishlashlarini tashkil eta olishi; - o'qituvchi muomala, nutq madaniyati hamda til boyligiga ega bo'lishi, mashg'ulot jarayonida tinglovchilarni mavzuga qiziqitira olishi; - tinglovchilarga etkazilayotgan materiallarda tadqiqotlar natijalari, aniq faktlar hamda amaliyotdan olingan boshqa ma'lumotlarning mavjudligi; - mavzu mazmunida fanlararo aloqaning yoritilganligi, materialning bayonida mantiqiy ketma-ketlik mavjudligi va h.k.

Laboratoriya mashg'ulotlari - multimediya qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada har bir akadem. guruhga alohida o'tiladi. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tiladi. "Munozara" texnologiyasi ishlatiladi, savollar mazmuni o'qituvchi tomonidan belgilanadi. Ko'rgazmali materiallar va axborotlar multimediya qurilmalari yordamida amallar bajariladi

Amaliy mashg'ulotlarda mavzularga oid amaliy topshiriqlar bajarish, jadval va diagrammalar to'ldirish, atlas va yozuvsiz xaritada amaliy topshiriqlar bajarish, masalalar yechish, amaliy kuzatish, o'lchash, meteorologik asboblilar bilan ishlash amallari bajariladi.

I-semestr (16 soat)

1-mavzu. Geologiya fani to'g'risidagi tushunchalari oydinlashtirish, uning tarmoqlari haqida aniq tasavvur hosil qilish. Geologiya fanining rivojlanish tarixi tahlili Geologiya fani to'g'risidagi tushunchalari oydinlashtirish, uning tarmoqlari haqida aniq tasavvur hosil qilish. Geologiya fanining rivojlanish tarixi tahlili. (2 soat)

7-mavzu. "Tabiat" muzeyidagi mavzularga tegishli bo'lgan eksponatlar bilan tanishish va ularni tahlil qilish. (2 soat)

V. **Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

Mustaqil ta'lim – muayyan fan dan o'quv dasturida belgilangan hamda o'quvchi tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malaka shakllantirishni, o'zlashtirish darajasini amalga oshiriladigan ta'lim shakllaridan bo'lib, o'qituvchi maslahati va tavsiyalari, bilimlar taqsimotiga tayyorgarligi asosida sinfdan tashqarida bajariladi.

Shuning uchun talabalar mustaqil ta'lim olishlarini rejalashtirish, tashkil qilish va buning uchun barcha zaruriy shart-sharoitlarni yaratish, dars m ashg'ulotlarida talabalarni o'qitish bilan bir qatorda ularni ko'proq o'qishga o'rgatish, bilim olish yo'llarini ko'rsatish, mustaqil ta'lim olish uchun y o'lanm a berish oliy ta'lim muassasining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Talaba mustaqil ishi (TMI) - muayyan fandan o'quv dasturida belgilangan bilim, ko'nikma va malakaning m a'lum bir qismini talaba tomonidan fan o'qituvchisi maslahati va tavsiyalari asosida auditoriya va auditoriyadan tashqarida o'zlashtirilishiga yo'naltirilgan tizimli faoliyatdir.

Geologiya. Tuproqlar geografiyasi kursi bo'yicha darslik va o'quv qo'llanmalarining (ularning to'la ta'minlanganligi taqdirda) boblari va mavzularini o'rganish. Tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruza qismlarini o'zlashtirish. o'qitish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimlari bilan ishlash. Fanning boblari va mavzulari ustida ishlash.

Geologiya. Tuproqlar geografiyasi fanidan nazariy va amaliy mashg'ulotlar o'tish davomida talabalarni ijodiy jarayonga yo'naltirish, ularni tashkil qilish, mustaqil ishlashga o'rgatish, mashqlar bajarish. Malakaviy amaliyotni o'tash chog'ida yangi texnika, jihozlar, keng ko'lami ilmiy ish olib borishga qulay jarayonlar va texnologiyalarni o'rganish. Talabalar ilmiy tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq holda fanning muayyan boblari va mavzularini chuqur o'rganish.

Talabalar mustaqil ishini tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik.
- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalarni qismini o'zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- talabaning o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularini o'rganish;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlarida ishtirok etish.

I-semestr (60 soat)

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etilayotgan mavzulari:

2-mavzu. Osmon yoritqichlari, koinot, quyosh tizimi va geologiya fanining o'zaro bog'liqligini; (2 soat)

3-mavzu. Minerallar haqida tushuncha. Minerallarning tabiiy xossalari laboratoriya sharoitida o'rganish. Tog' jinslarining genetik turlari, ularning o'zaro farqlari va o'xshashlik xususiyatlarini laboratoriyada aniqlash. Magmatik, metamorfik va cho'kindi tog' jinslari tarkibi. (2 soat)

4-mavzu. Endogen geologik jarayonlarning shakllanishini laboratoriya sharoitida chizmalar orqali tahlil qilish. Vulkan mahsulotlarini aniqlash. Seysmik va aseysmik hududlar geologiyasini plan va kesmalar aks ettirish. Seysmologlarning ishlash tartiblari bilan tanishish. (2 soat)

5-mavzu. Ekzogen geologik jarayonlar geografiyasi. Nurash jarayonining laboratoriya sharoitida (sun'iy) hosil qilish va kuzatish. Nuroq jinslar turi, geografiyasini kartalashtirish. Shamolning faoliyatini laboratoriya sharoitida o'rganish. Deflyatsiya, korroziya modelini tuzish. (2 soat)

6-mavzu. Okean va dengizlarning geologik faoliyatini laboratoriya sharoitida, shaffof idishlar, suv, yapasqi idishlar misolida kuzatish. Qo'shimcha predmetlar: kesak bo'lagi, qum, po'kak, tuz. (2 soat)

7-mavzu. Daryolar, ko'l va botqoqliklarning geologik faoliyatini laboratoriya sharoitida o'rganish. Qirg'oq va o'zak eroziyasi, oqiziq jinslarning tabiiy tanlanishi, tik va yotiq qirg'oq, meandra terrasa, qayir, delta hosil bo'lish jarayoni, eroziya bazisini laboratoriya sharoitida shakllantirish. (2 soat)

8-mavzu. Yer osti suvlarining geologik faoliyatini tahlil qilish. Tosh tuz, gips kesak bo'lagi yordamida karst, suffoziya jarayonlarini shakllanishini kuzatish, denudatsiya haqida tushunchaga ega bo'lish. (2 soat)

II-semestr (14 soat)

1-mavzu. Muzliklarning geologik faoliyatini tahlil qilish. Morenalarning turlari, tarkibini o'rganish. Karling, trog, kar, tsirkllarning tuzilishini plan va kesmada aks ettirish. (2 soat)

2-mavzu. Paleontologiya, paleogeografiya, poleobotanika, paleozoologiya fani haqida tushuncha. Toshqotgan organik qoldiqlar bilan tanishish. (2 soat)

3-mavzu. Stratigrafik qatlam. Geoxronologik jadval bilan ishlash. Arxeo va praterozoy erasi erasi davri geologiyasi. Quruqliklarning o'sha davrlardagi qiyofasini chizmada ifoda etish. (2 soat)

4-mavzu. Kembriy, ordovik, siluriy davrlari tektonikasi, iqlimi, ichki suvlari, organik dunyosi haqida tushuncha. Devon, toshko'mir, perm davrlari geologiyasi. O'sha davrlarga xos qazilma boyliklarni kontur kartalarda aks ettirish. (2 soat)

5-mavzu. Trias, yura, bo'r davrlari geologiyasi. O'sha davrlarga xos qazilma boyliklarni kontur kartalarda aks ettirish. (2 soat)

6-mavzu. Paleogen, neogen, to'rtlamchi davrlar geologiyasi va foydali qazilma boyliklarni kontur kartalarda aks ettirish. To'rtlamchi davr yotqiziqchilari va muzlik davrlari konturini kartalarda ifoda etish. (2 soat)

<p>1. Minerallar tasnifi</p> <p>2. Kolorado kanyoni va uning geologik tarixi</p> <p>3. Dunyo bo'ylab tarqalgan geologik g'orlar va ularning paydo bo'lish qonuniyatlari</p> <p>4. Qadimgi toshqotgan fauna va flora qizilmalarini saqlangan holatlari ularning saqlanishining sharoitlari</p> <p>5. Konlar va foydali qazilmalar haqida tushuncha. Norudali foydali qazilma boyliklari</p> <p>6. Minerallar tasnifi. Silikatlar, sulfidlar, karbonatlar va boshqalar. Yoqilg'i foydali qazilma boyliklari Yoqilg'i foydali qazilma boyliklari</p> <p>7. Endogen geologik jarayonlar. Magmatizm.</p> <p>8. Tektonik jarayonlar.</p> <p>9. Yerning asosiy geosukturalari.</p> <p>10. Litosfera tektonik plitalari</p> <p>11. V.V. Dokuchayev - tuproqshunoslik va tuproqlar geografiasining asoschisi.</p> <p>12. O'zbekistonda "Tuproqlar geografiasini" fanining rivojlanishi.</p> <p>13. Tuproq hosil qiluvchi g'ovaksimon nurash mahsulotlari.</p> <p>14. Tuproqning mexanik tarkibi.</p> <p>15. Organizmlar va tuproq hosil bo'lishi hamda geografiasini.</p> <p>16. Tuproq hosil bo'lishida iqlimning o'rni.</p> <p>17. Tuproq hosil bo'lishida rel'efning ahamiyati.</p> <p>18. Tuproq g'umusi va unumdorligi.</p> <p>19. Tabiat va jamiyat hayotida tuproqning ahamiyati</p> <p>20. Tuproqlar geografik tarqalishining asosiy qonuniyatlari</p> <p style="text-align: center;">II-semestr (60 soat)</p> <p>1. Metamorfik tog' jinslari tasnifi, foydali qazilmalari.</p> <p>2. Antropogen geologik davr tasnifi.</p> <p>3. Tetsis dengizining tarixiy paydo bo'lishi va chekmishi.</p> <p>4. A. Vegener hayoti va ijodi</p> <p>5. O'zbek geologlari hayoti va ijodi. Gondvana supermaterigining parchalanish tarixi.</p> <p>6. Toshko'mir geologik davri geologiasini. Mezazoy tog' burmalanish bosqichi tarixi</p> <p>7. Perm geologik davri geologiasini</p> <p>8. Bor geologik davri. Paleogen geologik davri geologiasini. Gertsin tog' burmalanish bosqichi tarixi. Kaledon tog' burmalanish bosqichi tarixi</p> <p>9. Ordovik geologik davri geologiasini. Alp tog' burmalanish bosqichi tarixi</p> <p>10. Trias geologik davri geologiasini. Kembriy geologik davri geologiasini. Neogen geologik davri geologiasini. Yura geologik davri geologiasini</p> <p>11. Tuproq - geografik rayonlashtirish</p> <p>12. Arktika, tundra va o'rmon tundra tuproqlari</p> <p>13. O'rmon va o'rmon dasht tuproqlari</p> <p>14. Dasht, chala cho'l va cho'l tuproqlari</p> <p>15. Subtropik kserofit - o'rmon va buta - dasht oblasti tuproqlari</p>
--

<p>16. Subtropik chala cho'l va cho'l oblasti tuproqlari. Savanna va siyrak o'rmonlar hamda dag'al bargli doimiy yashil bargli o'rmonlar tuproqlari. O'zbekistonda tuproqlar geografiasining rivojlanishi</p> <p>17. O'zbekistonning tog' va tog'oldi mintaqasi tuproqlari geografiasini va uni muhofaza qilish.</p> <p>18. Tuproq kesmasi va kartasini tuzish.</p> <p>19. Tuproq boniteti. Tuproqlar muhofazasi</p> <p>20. O'zbekistonning balandlik mintaqasi tuproqlari joylashuvi geografiasini</p>
<p>3. VI. Ta'lim natijalari/Kasbiy kompetensiyalar</p> <p>Geografik fanlar rivojlanishining asosiy bosqichlari, koinotning yerga ta'siri, geografik qobiqning asosiy xususiyatlari, ko'ndalang va bo'yama tuzilishi, geografik qobiqdagi harakatlar sabablari, geografik qobiqdagi asosiy qonuniyatlar haqida tasavvurga ega bo'ladilar;</p> <p>Fanning mazmuni, mohiyati, maqsadi va vazifalari, geografiasini fanlari tizimi, koinot to'g'risidagi asosiy tushunchalar, geografik qobiqning tuzilishini, undagi harakatlarni, geografik qobiqning rivojlanish tarixini biladilar va ulardan foydalana oladilar;</p> <ul style="list-style-type: none"> Geografiasini fanlari tizimi hamda geografik fanlarni, koinotning yerga ta'sirini va uning asosiy oqibatlarini, geografik qobiqni ko'ndalang va bo'yama yo'nalishda tabaqlanish sabablarini, geosferalarning tuzilishini aniqlash ko'nikmalariga ega bo'ladilar
<p>4. VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari</p> <p>Yangi (innovatsion) pedagogik texnologiyalar, muammoli ta'lim, masofaviy ta'lim, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim,</p> <p>Yangi bilimlarni egallash metodlari;</p> <p>Ko'nikma va malakalarni shakllantirish metodlari;</p> <p>Bilimlarni amaliyotda qo'llash metodlari.</p> <p>Hikoya, suhbat, tushuntirish, ma'ruza, muozara usullaridan foydalaniladi</p>
<p>5. VIII. Kreditlarni olish uchun talablar</p> <p>Geologiya va tuproqlar geografiasini fani bo'yicha talabalar bilimini baholash va nazorat mezonlari</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy nazorat, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishini topshirish.</p> <p>Joriy nazorat. Joriy nazorat semestr davomida seminar mashg'ulotlariga ajratilgan soatlar (juflik) dan kelib chiqib umumiy 30 ball bilan baholanadi.</p> <p>Jami seminar mashg'ulotlari bo'yicha o'zlashtirish natijalari 100 ballik tizimda 30 ball bilan baholanadi.</p> <p>Oraliq nazoratlar. Oraliq nazoratlar semestr davomida ma'ruza mashg'ulotlari o'quv soatidan kelib chiqqan holda 1 marta o'tkaziladi. Oraliq nazorat 100 ballik tizimda 20 ball bilan baholanadi. Oraliq nazorat ishi tarkibida mustaqil ta'lim topshirig'i kiradi.</p> <p>Oraliq va joriy nazorat uchun ajratilgan ballning 60% ini to'plagan talabalarga yakuniy nazorat topshirishga ruxsat beriladi.</p>

<p>Yakuniy nazorat</p> <p>Yakuniy nazorat yozma yoki test shaklida o'tkaziladi. Talabning yakuniy nazoratdagi o'zlashtirishi 100 ballik tizimda 50 ball bilan baholanadi va yakuniy nazorat uchun ajratilgan ballning 60% ini to'plagan talabalar fanni o'zlashtirgan hisoblanadi.</p>	<p>Asosiy adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Nizomov A va boshq. "Geologiya". O'quv qo'llanma T.: "Info Capital Group", 2019. 2. Toshxo'jaev R. Tuproqshunoslik. – T.: TDPU, 2000. 3. Toshmuhamedov B.T. Umumiy geologiya. Darslik. T.: "Noshir" 2011. 4. Xodjimatomov A.N., Xolmurodov SH.A. Tuproqlar geografiyasi. – T.: Fan va texnologiyalar. 2018. 5. Toshxo'jaev R. Tuproqshunoslik (laboratoriya mashg'ulotlari). – T.: TDPU, 2008. 6. Qurbonov A. S. "Geologiya" o'quv qo'llanma T.: «O'qituvchi», 1992 7. Mamatqulov M., Egamov B. Geomorfologiya, geologiya asoslari bilan. Darslik. Toshkent. "Donishmand ziyosi" 2020 y. 8. Ibragimova R.A. Geologiya va geomorfologiya. Uslubiy qo'llanma. Toshkent. VNESHINVESTROM. 2021 y <p>Qo'shimcha adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 9. Nigmatov A.N. Yusupov R. Tabiiy geografik komplekslar va egzogen jarayonlar. – T.: Turon iqbol, 2006. 10. Yusupov R., Jo'liyev A., Soatov A. Geomorfologiya. – T.: 1997. 11. Shorahmedov Sh.Sh. Umumiy va tarixiy geologiya. – T.: 1985. 12. Uzoqov P, Xoliqulov Sh, I. Boboxo'javev. Tuproqshunoslik. Darslik T. 2010 13. Azimboyev S.A. Dehqonchilik, tuproqshunoslik va agrokimyo asoslari. T.: Iqtisod-moliya., 2006. 14. Tojiyev U., Namozov X. O'zbekiston tuproqlari. – Buxoro., 2002. 15. Toshxo'javev R. Tuproqshunoslik (laboratoriya mashg'ulotlari). – T.: TDPU, 2008. 16. Boboxo'javev I., Uzoqov P. Tuproqlar geografiyasi. – Toshkent, 1996. 17. Bahodirov M., A. Rasulov Tuproqshunoslik. O'qituvchi nashriyoti. – Toshkent. 1975 <p>Axborot manbalari:</p> <ol style="list-style-type: none"> 18. www. tdu.uz 19. www. pedagog.uz 20. www. ziyonet.uz 21. www. lex.uz 22. www. bilim.uz 23. www. gov.uz
<p>7. A. Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2022 yil " 30 " 08 dagi qarori bilan ma'qullangan.</p>	

<p>8. Fan/modul uchun ma'sullar:</p> <p>Adilova O.A. - "Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari" kafedrası dotsenti, PhD. J.E. Xolmirzaev - Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari" kafedrası o'qituvchisi</p>	<p>9. Taqrizchilar :</p> <p>Karimov I.E - JDPU Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari kafedrası katta o'qituvchisi, g.f.b. PhD. Raxmonov B. - SamDU Gidrometeorologiya kafedrası dotsenti, t.f.n.</p>
--	--